

Yangi tashkil etilgan TBC Sug'urta aksiyadorlik jamiyatiga keladigan bo'lsak, mamlakatimizda deyarli har bir bankning o'z sug'urta tashkiloti mavjud. BUndan asosiy maqsad bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarni yoki kredit ta'minoti sifatida qabul qilinadigan garov mol-mulkini sug'urtalashda sug'urta mukofotini o'z sug'urta tashkilotida qoldirishdir. Lekin tijorat banklari tomonidan kredit riskini yoki garovga olingan mol-mulkni faqat bitta, u ham bo'lsa o'z sug'urta tashkilotida sug'urtalash ham yuqori riskni yuzaga keltirib qo'yishini shu o'rinda qayd etishimiz lozim. Bunday amaliyotga qarshi tijorat banklari regulyatori chora ko'ra ko'rmayotgan bir vaqtda TBC bank ham o'z sug'urta tashkilotini tashkil etganligini ko'rmoqdamiz.

Respublikamizda sug'urta kompaniyalari soni kamayish tendensiyasiga ga bo'lgan bir vaqtda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sug'urta bozori regulyatori sifatida sanksiyalar qo'llash vakolatiga ham ega. Amalda regulator buni sug'urta kompaniyalarida tegishli talablar bajarilmaganida qo'llab ham kelmoqda. Jarima sanksiyalardan tashqari ILMA sug'urta kompaniyalari litsenziyani vaqtinchalik to'xtatib qo'yish amaliyotlari bilan ham shug'ullanmoqda. Lekin jarima va boshqa shakldagi sanksiyalarning qo'llanilishi sug'urta bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yuldashev Saydullo

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Turizm va mehmondo'stlik

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasini moliyalashtirishning dolzarb masalalari va uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat investitsiyalari, bank kreditlari hamda xususiy investitsiyalarning roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm sohasini moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida turizm sohasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, turizmni moliyalashtirish, investitsiyalar, turizm infratuzilmasi, multiplikator effekti.

Jahon iqtisodiyotining eng barqaror rivojlanayotgan sohalaridan biri bu turizm sohasidir. 2025-yilgi global YaIMga turizm sohasi 11,7 trillion AQSH dollari miqdorida ulushini qo'shdi. Bu dunyo iqtisodiy ishlab chiqarishining 10,3

% ga teng.³⁰⁸ O'tgan yili jahon turizm bozorining qiymati 190,53 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Yil davomida sayohat qilgan insonlar soni esa 1,52 milliard kishidan oshdi.³⁰⁹ Bugungi kunda turizm axoli o'rtasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi va hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi drayver sohalardandir. Shu sababli turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat siyosati miqiyosida turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. 2025-yili yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning soni 11 millionga, tursitik xizmatlar eksporti esa 4,8 milliard AQSH dollariga yetdi. O'zbekistonga vizasiz tartibda kiruvchi davlatlar soni 94 taga yetqazildi.³¹⁰ Bunday natijalarga erishishda turizm infrotuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalar jalb qilish, davlat va hususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik va boshqa moliyaviy mexanizmlardan foydalanish zamonaviy moliyaviy ekotizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda turizm sohasini moliyalashtirishning asosiy manbalarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Turizmining iqtisodiy ahamiyatini turli jabhalarda kuzatishimiz mumkin. Hududga yangi turistlarning oqimi oshishi hududda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga, turizm bilan bog'liq bo'lgan kichik biznesning faollashishiga, turistlarga taqdim etilayotgan xizmatlar bozorining kengayishiga, turistik obyektlar bilan bog'liq infrotuzilmaning rivojlanishiga, ko'plab tashqi hamda ichki investitsiyalarni jalb etilishiga, hamda sohada faoliyat ko'rsatuvchilardan kelib tushadigan soliqlarni ko'payishiga bevosita ta'sir qiladi.³¹¹ Bu esa o'z navbatida davlat iqtisodiyotini rivojlanishiga, aholi bandlik darajasini hamda moliyaviy salohiyatini oshishiga, umumiy shaharsozlik infrastrukturasini yaxshilanishiga, davlatning xalqaro maydondagi obro'sini o'shishiga hamda xalqaro investitsiyalarni olib kirish uchun ijobiy imidj yaralishiga sabab bo'ladi.

Turizm davlat iqtisodiyotida "Multiplikator effekti"ni ishga tushuradi. Har bir sayyoh tashrifi davomida sarflagan har bir dollari turizmga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan yondosh sohalarda qo'shimcha daromadlarni olib keladi. Yurtimizda jadal rivojlanayotgan ziyorat turizmi bo'yicha kelgan sayyohlar esa, qolgan sayyohlarga qaraganda ko'proq sarf harajat qilishadi. Bu odatda ziyoratchining oddiy turistga nisbatan diniy motivlarining iqtisodiy qarashlaridan ustun bo'lishi bilan izohlanadi.³¹² Tomas Kozakning tadqiqotiga

³⁰⁸ World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic Impact Report 2025.

<https://wtcc.org/research/economic-impact>


³⁰⁹ UN Tourism (UNWTO). World Tourism Barometer, 2025. <https://www.unwto.org/tourism-data>

³¹⁰ <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

³¹¹ OECD. Effective Policy Approaches for Quality Investment in Tourism. Paris: OECD Publishing, 2018.

³¹² Vukonić, B. (1996). *Religion and Tourism: Economic Aspects*

ko'ra turizmدا multiplikator effekti kayfitsenti 2.59 dan 4.4 gacha bo'lishi ta'kidlangan. Bunda xorijiy sayyohlar sarflagan pul bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, ishlab-chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalariga ta'sir qiladi.³¹³ Bu esa har bir turistning milliy iqtisodiyotga qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib turibdi.



1-rasm. Turizmining iqtisodiyotga bo'lgan ta'siri

Jahonda turizm sohasining barqaror rivojlanib borayotganining asosiy omillari bu, ushbu sohani moliyalashtirish imkoniyatlari va investitsiya muhitining rivojlanganlik ko'rsatkichlariga bog'liq. Insfrotuzilmani yaxshilash, yangidan-yangi mehmonxonalar qurish, transport-logistika xizmatlarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda mavjud turistik obyektlarni modernizatsiya qilish katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Turizm sohasini moliyalashtirishning asosiy manbalariga davlat investitsiyalari, bank kreditlari, xususiy investitsiyalar, venchur kapitallari va kraudfanding kiradi. Hukumat tarafidan turizm sohasini rivojlantirish, infrotuzilmani yaratish, transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish va madaniy meros obyektlarini saqlash bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilgan. Banklar tarafidan ajratiladigan kreditlar esa turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan bir qatorda, xususiy investitsiyalar turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy investorlarni O'zbekistondagi turizm loyihalariga keng jalb qilinishi mavjud turistik salohiyatni yanada oshirishga, yangi turistik obyektlarni barpo etilishiga va turizm xizmatlarining sifatining oshishiga sabab bo'ladi.

³¹³ Tamás Kozák. The Regional Multiplier Effect of Pilgrim Tourism

Turizmning moliyalashtirish manbalari

Moliyalashtirish manbasi	Asosiy xususiyatlari	Turizm rivojiga ta'siri
Davlat investitsiyalari	Davlat dasturlari va infratuzilma loyihalari orqali amalga oshiriladi	Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish
Bank kreditlari	Tijorat banklari tomonidan turizm loyihalarini moliyalashtirish	Mehmonxonalar, turistik xizmatlar va kichik biznesni rivojlantirish
Xususiy investitsiyalar	Mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan amalga oshiriladi	Yangi turistik obyektlar yaratish va xizmatlar sifatini oshirish
Davlat-xususiy sheriklik	Davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan loyihalar	Yirik turizm loyihalarini samarali amalga oshirish

Turizmni moliyalashtirishdagi muammolar. Turizm industriyasini takomillashtirish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarga qaramay, ushbu sohani moliyalashtirish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. Birinchi navbatda, mamlakat hududlari bo'yicha investitsiyalar ulushining notekis taqsimlanishi. Ayrim hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan investitsion ulush boshqa hududlarning ulushidan sezilarli faqr qiladi. Bu o'z navbatida investitsion jozibadorligi past bo'lgan hududlarda yangi turistik obyektlarni bunyod etish va mavjud infratuzilmani takomillashtirish hamda modernizatsiya qilish jarayonini sekinlashtiradi.

Bunga qo'shimcha tarzda, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ham har doim ham yetarli emas. Bunda tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida kredit olish jarayonining murakkabligi, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi hamda moliyaviy risklarning mavjudligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi turistik yo'nalishlarni yaratish hamda xizmatlar sifatini oshirish uchun moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sohani moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim shartdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, turizm industriyasini rivojlantirishda davlat investitsiyalari, bank kreditlari hamda xususiy investitsiyalar muhim moliyaviy manbalar hisoblanadi. Biroq ushbu sohani moliyalashtirish jarayonida investitsiya yetishmasligi, kredit resurslaridan foydalanishdagi qiyinchiliklar

hamda ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjud.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida turizm sohasida investitsion muhitni yanada yaxshilash, turizmga doir yangi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sherikchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.* – Toshkent, 2025.
2. *Vukonić B. Religion and Tourism: Economic Aspects.* – Oxford: Elsevier Science Ltd., 1996.
3. *Kozák T. The Regional Multiplier Effect of Pilgrim Tourism.*
4. *World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic Impact Report 2025.*
<https://wttc.org/research/economic-impact>
5. *UN Tourism (UNWTO). World Tourism Barometer, 2025.*
<https://www.unwto.org/tourism-data>.
6. *OECD. Effective Policy Approaches for Quality Investment in Tourism.* – Paris: OECD Publishing, 2018.
https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/11/effective-policy-approaches-for-quality-investment-in-tourism_4c4199b5/88ea780c-en.pdf.

YASHIL BARQAROR IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Sodikov Zokir Rustamovich,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, i.f.n.

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadi sifatida belgilangan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi³¹⁴ tasdiqlangan. Ushbu hujjat yashil iqtisodiyot va sirkulyar ishlab chiqarishning huquqiy asosini belgilovchi asosiy rasmiy hujjat hisoblanadi. Strategiya qabul qilinishining asosiy maqsadi — tabiiy resurslarning samarasiz sarflanishi, suv tanqisligi va yer

³¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori, 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son